



2025-yil 20-mart

69-13-0-F/25

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi “Kommunal xizmatlar ko‘rsatish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 194-sonli qaroriga asoslanib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025-yil 19-martdagi 01/101-sonli, Qoraqalpog‘iston Respublikasi gidrometeorologiya markazining 2025-yil 18-martdagi 124-sonli xatlarini inobatga olib, respublikamiz hududida ob-havoning isishiga bog‘liq holda, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish jarayonida energoresurslarning sarfini kamaytirish, iste‘molchilarga yetkazib beriladigan tabiiy gazni tejash va yoqilg‘i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida:

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida barcha turdagi iste‘molchilar uchun 2025-yil 20-martdan boshlab isitish mavsumi tugashi belgilansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (Q.Aytbayev), “Hududgaz Qoraqalpog‘iston” gaz ta‘minoti filiali (S.Erlepesov), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Qoraqalpog‘iston filiali (A.Nurimbetov), “Qoraqalpoq suv ta‘minoti” AJ (Q.Xalmuratov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi (M.Qurbanov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi (G.Kojabayeva), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligi (B.Temirbayev), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sport vazirligi (A.Allanazarov), Oliy ta‘lim muassasalari rahbarlari, vazirliklar, idoralar, korxonalar, shahar va tuman hokimliklari kelgusi 2025/2026-yillardagi isitish mavsumiga obyektlarni tayyorlash ishlarining o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini belgilangan tartibda ta‘minlasin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2024-yil 15-oktabrdagi 228-13-0-F/24-sonli farmoyishi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari kotibiyati hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri Q.Aytbayev zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F.Ermanov**